



UDK: 008(575.1:574)

Abror A. G'AYBULLAYEV,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: abrorgaybullaev62@gmail.com, ORCID:0009-0004-8264-0550

PhD A.Oltiboyev taqrizi asosida

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI MADANIY MUNOSABATLAR: BUGUNGI KUN VA ISTIQBOLLAR

Аннотация

Maqolada O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik, ta'lim, fan va adabiy hamkorlikning bosqichlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Prezidentlar darajasidagi tashriflar hamda madaniy yil tadbirlarining xalqlararo ishonchni mustahkamlashdagi roli ochib berilgan. Statistik ma'lumotlar va madaniy integratsiya jarayonlari asosida, madaniy diplomatiya mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim "yumshoq kuch" vositasi ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Madaniy diplomatiya, strategik sheriklik, gumanitar aloqalar, mintaqaviy barqarorlik, madaniy integratsiya, adabiy meros, "yumshoq kuch", ikki tomonlama hamkorlik, ta'lim almashinuvi, xalqlararo do'stlik, millatlararo munosabatlar, tarixiy mushtaraklik.

КУЛЬТУРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКОЙ КАЗАХСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

В статье представлен комплексный анализ современного состояния и тенденций развития культурно-гуманитарных связей между Республикой Узбекистан и Республикой Казахстан. В исследовании подробно рассматриваются этапы сотрудничества в сферах дипломатии, образования, науки и литературы. Особое внимание уделено роли визитов на высшем уровне и мероприятий, проводимых в рамках «годов культуры», в укреплении межгосударственного доверия. На основе статистических данных и процессов культурной интеграции обосновывается, что культурная дипломатия выступает важным инструментом «мягкой силы» для обеспечения региональной стабильности.

Ключевые слова: Культурная дипломатия, стратегическое партнерство, гуманитарные связи, региональная стабильность, культурная интеграция, литературное наследие, «мягкая сила», двустороннее сотрудничество, образовательный обмен, дружба народов, межнациональные отношения, историческая общность.

CULTURAL RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN: CURRENT STATUS AND PROSPECTS

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the current state and development trends of cultural and humanitarian ties between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan. The study details the stages of cooperation in the fields of diplomacy, education, science, and literature. Particular attention is given to the role of high-level presidential visits and events organized within the framework of "years of culture" in strengthening interstate trust. Based on statistical data and cultural integration processes, the paper argues that cultural diplomacy serves as a crucial instrument of "soft power" to ensure regional stability.

Key words: Cultural diplomacy, strategic partnership, humanitarian ties, regional stability, cultural integration, literary heritage, "soft power", bilateral cooperation, educational exchange, friendship between peoples, interethnic relations, historical affinity.

Kirish. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Ushbu davlatlar o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar nafaqat tarixiy mushtaraklikka, balki bugungi kundagi strategik sheriklikning yangi bosqichiga asoslanadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, madaniy diplomatiya xalqlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash hamda iqtisodiy-siyosiy integratsiyani chuqurlashtirishning eng samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolaning maqsadi – ikki mamlakat o'rtasidagi gumanitar hamkorlikning bugungi holatini baholash va uning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni kompleks tahlil qilish uchun tahliliy-qiyosiy, statistik va tarixiy-biografik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali ikki mamlakat o'rtasidagi kelishuvlarning

rivojlanish bosqichlari o'rganildi, statistik ma'lumotlar asosida esa hamkorlikning amaliy samaradorligi raqamlar bilan asoslandi. Shuningdek, tarixiy-biografik metod vositasida ikki xalq o'rtasidagi ma'naviy ko'prik vazifasini o'tovchi shaxslarning integratsiyadagi o'rni yoritildi. Mazkur metodlar yig'indisi madaniy aloqalarni mintaqaviy barqarorlikning ajralmas omili sifatida har tomonlama baholashga imkon berdi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar bugungi kunda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, strategik sheriklikning barcha jabhalarida ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. Davlatlararo munosabatlar poydevori yaxshi qo'shnihilik, o'zaro hurmat, teng huquqlilik va konstruktiv muloqot tamoyillariga asoslanadi. 1992-yil 23-noyabrda diplomatik aloqalar o'rnatilganidan buyon tomonlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo'nalishlarda chuqur integratsiyani amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2022-yil 22-

dekabrda munosabatlarning ittifoqchilik darajasiga ko'tarilishi ikki mamlakat o'rtasidagi sheriklikning strategik ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi [3].

Siyosiy muloqot samaradorligini ta'minlashda davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari hal qiluvchi rol o'ynamoqda. 2016-yildan buyon oliy darajada amalga oshirilgan 25 ta tashrif o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qildi [8]. Parlamentlararo hamkorlik mexanizmlari, xususan, qo'shma komissiyalar faoliyati qonunchilik tajribasini almashishda muhim maydon vazifasini o'tamoqda. 1997-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Ikki tomonlama hukumatlararo komissiya 2019-yildan e'tiboran bosh vazirlar hamraisligida tizimli ravishda ish yuritmoqda. So'nggi to'rt yil ichida hukumatlar darajasida 17 ta uchrashuvning o'tkazilishi hamkorlikning amaliy va natijador xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi [8]. 2022-yilda import o'rnini bosish va sanoat kooperatsiyasi bo'yicha maxsus ishchi guruhning tashkil etilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

2021-yil 5-6-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga amalga oshirgan davlat tashrifi gumanitar sohadagi aloqalarni yangi mazmun bilan boyitdi. Ushbu tashrif doirasida ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, san'at va turizm sohalarida keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi [4]. Xususan, madaniy yil tadbirlarini muntazam o'tkazish, Yoshlar kongressi hamda ijodiy va ilmiy ziyolilar forumini tashkil etish kabi tashabbuslar yosh avlodni birlashtirish hamda intellektual salohiyatni uyg'unlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbek va qozoq xalqlari nafaqat geografik qo'shnilik, balki mustarak tarix, bir xil an'ana va o'xshash dunyoqarash kabi ma'naviy rishtalar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev "Yegemen Qazaqstan" va "Казахстанская правда" gazetalarini uchun bergan intervyusida ta'kidlaganidek, ikki xalq qon-qarindoshlik va umumiy intilishlar bilan jipslashib ketgan. Markaziy Osiyo mintaqasi tarixan fan va ma'rifat o'chog'i bo'lgani bois, mintaqa taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar merosi umuminsoniy bo'lik hisoblanadi. Abay Qo'nonboyev, Qaniy Shatpayev, Muxtor Avezov, Sobir Muqonov va Dinmuhhammad Kunayev kabi qozog'istonlik ulug' namoyandalari nafaqat qozoq xalqi, balki butun mintaqada ma'naviy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan siymolardir [5].

Adabiy aloqalar sohasida yozuvchi Nosir Fozilovning faoliyati yorqin namuna bo'la oladi. U o'zbek tiliga Abay Qo'nonboyev, Muxtor Avezov, Sobir Muqonov, G'abit Musrepov, G'abiden Mustafin, Abdulla Tojiboyev va Abdijalil Nurpeisov kabi yirik qozoq adiblarining asarlarini o'girib, ikki xalq o'rtasida ma'naviy ko'priq vazifasini o'tagan [6]. N. Fozilovning xizmatlari yuksak baholanib, 1986-yilda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining Bayimbet Maylin nomidagi davlat mukofoti, 1994-yilda esa Qozog'iston Respublikasi Prezidenti ta'sis etgan "Tinchlik va ma'naviy hamjihatlik uchun" xalqaro mukofoti bilan taqdirlangan. Bundan tashqari, adib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni va "El-yurt hurmati" ordeniga sazovor bo'lgan [8].

Ikki davlat rahbarlari madaniy-ma'rifiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga alohida ahamiyat qaratmoqda. Xususan, 2018-yil 13-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini o'rganish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Qozog'istonda esa Alisher Navoiy tavalludining 577-yilligi tantanali

nishonlangani ikki xalqning umumiy tarixiy-madaniy merosga bo'lgan yuksak ehtiromini anglatadi [7]. Qardosh xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashda shaxsiy hissa qo'shayotgan fuqarolar davlat tomonidan munosib rag'batlantirilmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1991-2019-yillar mobaynida qozoq millatiga mansub 630 nafar O'zbekiston fuqarosi, 1991-yildan buyon esa 23 nafar Qozog'iston fuqarosi O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlanganligi ikki tomonlama gumanitar aloqalar nafaqat rasmiy darajada, balki xalqlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar zahirida ham barqaror rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi [8].

Ta'lim sohasidagi integratsiya bugungi kunda intellektual salohiyatni birlashtirishga qaratilgan. O'zbekiston va Qozog'iston oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi 50 dan ortiq to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi bunga yaqqol misoldir. Ta'lim tizimida qozoq tili va adabiyotiga qaratilgan e'tibor tizimli xarakterga ega bo'lib, mamlakatimizdagi 400 ga yaqin maktabda qozoq tilida ta'lim berilishi, Toshkent, Guliston, Nukus, Jizzax va Navoiy davlat universitetlarida tegishli fakultetlarning faoliyat yuritishi gumanitar yaqinlikning amaliy ko'rinishidir [8]. Kelgusida universitetlar konsorsiumini tuzish va ziyolilar forumlarini o'tkazish bu yo'nalishdagi ilmiy-pedagogik salohiyatni yanada oshiradi.

Madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlik esa ma'naviy rishtalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Sharq taronalari" kabi xalqaro festivallari, 2018-yilgi "Qozog'istonda O'zbekiston yili" va 2019-yilgi "O'zbekistonda Qozog'iston yili" doirasida o'tkazilgan yuzlab madaniy tadbirlar, ko'rgazmalar va teatr gastrollari o'zaro anglashuvni yangi pog'onaga olib chiqdi. Ostona shahrida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haykalining o'rnatilishi nafaqat ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi, balki xalqlarimizning ko'p asrlik ma'naviy yaqinligining ramziy ifodasidir [7].

Millatlararo munosabatlar O'zbekiston-Qozog'iston do'stligining poydevoridir [1]. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 800 mingdan ortiq qozoq millatiga mansub fuqarolar jamiyatimizning ajralmas qismidir. 1992-yildan buyon faoliyat yuritayotgan Qozoq milliy madaniy markazi va uning hududiy bo'linmalari qozoq etnosining tili, urf-odatlari va madaniy merosini asrab-avaylashda muhim rol o'ynaydi [4]. Konimex va Bo'stonliq tumanlaridagi etnografik muzeylar, "Aytis" musobaqalari va "Nurli jo'l" gazetasi kabi vositalar orqali milliy o'zlikni anglash va madaniy integratsiya jarayonlari qo'llab-quvvatlanmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik yuqori texnologik va amaliy xarakter kasb etib bormoqda. Ikki mamlakat sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasidagi anglashuv hujjatlari, xususan, "Serebra" kabi ilg'or raqamli tizimlar asosida insult diagnostikasi bo'yicha tajriba loyihalarining ishga tushirilishi tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan.

Xulosa. Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Qozog'istonning madaniy-ma'rifiy sohadagi hamkorligi mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim tayanich nuqtasidir. Xalqlar o'rtasidagi ishonch va qon-qarindoshlik bugungi kunda xalqaro maydonda uzoq muddatli hamkorlikning yorqin namunasidir. Kelgusida mazkur madaniy-gumanitar makonni yanada kengaytirish, xususan, ilmiy tadqiqotlar almashinuvini jadallashtirish va mintaqaviy "yumshoq kuch" salohiyatini yuksaltirish ikki davlatning nafaqat gumanitar, balki iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi integratsiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi [2].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va har tomonlama kengaytirish to‘g‘risida”gi deklaratsiyasi. – Toshkent, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
3. Abduxalilov A.A. Markaziy Osiyo davlatlarida madaniy diplomatiya: rivojlanish bosqichlari va istiqbollari. – Toshkent: “Fan”, 2023. – 210 b.
4. A.A.Azizov O‘zbekiston – Qozog‘iston: strategik hamkorlikning yangi qirralari. // “O‘zbekiston ijtimoiy fanlari” jurnali, 2024. №2. – 45-52 b.
5. Karimov N.R. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlari. – Toshkent: “Akademiya”, 2020. – 180 b.
6. Nosir Fozilov. Qardosh adabiyotlar: tarjima va muloqot muammolari. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2018. – 240 b.
7. Tursunov O.K. O‘zbekiston-Qozog‘iston madaniy-gumanitar hamkorligi: an‘ana va zamonaviylik. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2022. – 156 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. 2023-yil yakunlari bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi tahlili. – [Elektron manba: www.stat.uz], 2024.